

HARBIY VATANPARVARLIK AXLOQINI SHAKLLANTIRISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarda vatanparvarlik axloqini shakllantirishning an'anaviy va zamonaviy usullardan foydalanish orqali O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi axloqiy-ruhiy, ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, jamiyatimizda armiyaga va harbiy xizmatga nisbatan yondashuv hamda qarashlar tamomila o'zgartirish, Bunga uyg'un tarzda harbiy xizmatdan mustahkam hayotiy qarashlarga ega bo'lib qaytgan yoshlar jamiyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlarda faol ishtirok etishga har tomonlama tayyor ekanligini namoyon etib kelayotgani haqida. Harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ta'limning ustuvor omilga aylanishi bir jihatdan, jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit shakllanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan harbiy xizmatning taktik va strategik maqsadini aniq va tizimli tashkil etish imkonini beradi. Buni mustaqillikdan keyin fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish tizimini tubdan isloh qilish natijasida yoshlarning armiyaga bo'lgan munosabatidagi ijobiy o'zgarishda ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, o'zbekiston qurolli kuchlari, harbiy, ma'naviy-axloqiy, konstitusiyasi, muqaddas burch, globallashtirish, targ'ibot usuli, jamoaviylik usuli, an'anaviylik usuli, qadriyatlar ustuvorligi usuli, zamonaviylik usuli, vazifalar, O'zbek xalqi tarixi, tarbiya, ustuvor, yo'nalish.

Bugungi kunda davr talabi va jahon andozalariga javob beradigan Qurolli Kuchlarni barpo etish, mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash hamda milliy armiyani shakllantirish yo'lida keng ko'lamlislohotlar amalga oshirildi. Bu pirovardida tinchligimiz, mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, harbiy soha islohotlari bilan bog'liq strategik maqsadlarga erishishning muhim huquqiy poydevori O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 64- moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi" ekanligi bilan belgilanadi. Buning natijasida O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi axloqiy-ruhiy, ma'naviy muhit butunlay sog'lomlashdi, jamiyatimizda armiyaga va harbiy xizmatga nisbatan yondashuv hamda qarashlar tamomila o'zgardi. Bunga uyg'un tarzda harbiy xizmatdan mustahkam hayotiy qarashlarga ega bo'lib qaytgan yoshlar jamiyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlarda faol ishtirok etishga har tomonlama tayyor ekanligini namoyon etmoqda. Binobarin, har bir yigit qalbida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishdek muqaddas burchga bo'lgan hurmat benihoya yuksaldi.

Harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ta'limning ustuvor omilga aylanishi bir jihatdan, jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit shakllanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan harbiy xizmatning taktik va strategik maqsadini aniq va tizimli tashkil etish imkonini beradi. Buni mustaqillikdan keyin fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish tizimini tubdan isloh qilish natijasida yoshlarning armiyaga bo'lgan munosabatidagi ijobiy o'zgarishda ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, hozirgi globallashtirish jarayoni yoshlarda harbiy vatanparvarlik axloqini shakllantirishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bular quyidagi usullardan iborat.

Targ'ibot usuli. Vatanparvarlikning tarbiyaviy-axloqiy mazmuni va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berishdan iborat. Shunga bois harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarga sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

Jamoaviylik usuli. Bugungi kunda Qurolli kuchlarimizning umumiy jangovar shayligi aynan birlashma, qo'shilma, qism va bo'linmalarining jangovar shayligi darajasi bilan belgilanadi. Harbiy bo'linmalar o'z ichki tuzilmasiga ko'ra faoliyat yuritishi qat'iy belgilangan ijtimoiy guruhni ifodalab, harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari va ular o'rtasidagi xizmat munosabatlari, ichki tartib qoidalari, mansabdor shaxslarning majburiyatlari, kundalik hamda maishiy sharoitlar, harbiy xizmatchilarni joylashtirish, ichki xizmatni olibborish masalalari Intizom hamda Ichki xizmat Nizomining asosiy holatlarida qat'iy belgilab berilgan. Harbiy tadqiqotchi E.Volkov fikricha: «Qurolli Kuchlar doirasida ijtimoiy munosabatlarning qat'iy tartib asosida amalga oshirilishi, deviant xulq namoyon bo'lishi ehtimolini oshirgan holda armiyadagi xulqdan og'ish holatlari mavjud bo'lishining ob'ektiv sabablaridan biri hisoblanadi» .

An'anaviylik usuli. Harbiy an'ana armiyada harbiy xizmat jarayoni jangovar vazifalarni bajarish, shaxsiy tarkibni tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan, tarixan shakllangan, avloddan-avlodga o'tuvchi g'oya, qoida, urf-odat, xulq-atvor me'yorlarida namoyon bo'ladi. Qurolli Kuchlarda harbiy an'analar tizimi harbiy faoliyatning asosiy uch sohasini - Jangovar an'analar, Harbiy turmush an'analari va Ta'lim-tarbiyaviy an'alarini qamrab oladi. Mazkur fikrni harbiy tadqiqotchi E.Rasulev "An'analar nafaqat xulq-atvor me'yorlari, balki harbiy xizmatda ijtimoiy ahamiyatli hodisalar mohiyatini aks ettirish vositasi, harbiy tafakkur shakli hamdir" deb tasdiqlaydi .

Qadriyatlar ustuvorligi usuli. Harbiy xizmatchilarda milliy qadriyatlarga, ilg'or an'analarga, axloqiy tamoyillarga, yuksak madaniyatga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarini hosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi ham Vatan ravnaqiga, yurt tinchligiga, xalq farovonligiga befarq bo'lmagan avlodni shakllantirishdan iborat Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar progmatik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviylik usuli. O'tish davridagi qiyinchiliklar, to'siqlar, nomutanosibliklar, hatto jinoiy harakatlarning oshib borishi ham sof vijdonli kishi qalbida Vatan tuyg'usini, agar u chuqur e'tiqodga aylangan bo'lsa, o'chirolmaydi. Rang-barang maqsadlar va manfaatlarga ega ijtimoiy guruhlar mavjud ekan, umummaqsadni turlicha, goho bir-biriga zid tarzda idrok etish ham saqlanib qoladi. Demak, o'tish davri avlodlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bilan bu boradagi vazifalar to'la-to'kis bajarilmaydi, balki u yangi bosqichdagi yangi vazifalar uchun poydevordir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bugungi kunda yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirish ishlariga innovatsiyalarni joriy qilish, ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini yangi yondoshuvlar asosida tizimli tashkil etish masalalari ijtimoiy-axloqiy ehtiyojga aylanib bormoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yuzasidan mamlakatimiz harbiy ta'lim muassasalarida bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu borada mamlakatimizda ko'zlangan maqsad va vazifalarni tizimli amalga oshirishga qaratilgan tarbiyaning turli shakl, vosita va usullaridan samarali foydalanishda erishilgan natijalar mavjud.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan usullarni modernizatsiya qilish va uning konseptual asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. Bunda o'zbek xalqining falsafiy merosi, axloqiy qadriyatlari, intellektual salohiyati va ma'naviy imkoniyatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki: O'zbekiston va uning xalqi o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtiruvchi ma'naviy mezon

va qoidalarga ega bo'lgan, milliy borlig'i, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan xalq; O'zbek xalqining sivilizasiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsuli hisoblanadi; O'zbek xalqi tarixi – o'zbek xalqi ma'naviyatining asosi bo'lib, har bir xalq o'z tarixini har xil ta'sir va tajovuzlardan asrash kerak; O'zbek xalqining tarixiy shaxslari, shaharlari, madaniy yodgorliklari ajdodlarning avlodlar uchun qoldirilgan salmoqli merosi, ijobiy ishlari, umumjahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissalarini sifatida qadrlanadi. Demak, harbiy vatanparvarlikni san'at, adabiyot, ma'rifiy tadbirlar kabi turli usul va vositalar yordamida shakllantirish mumkin. Biroq, bundan keyin ham harbiy vatanparvarlikni mustahkam e'tiqodga aylantirishda ta'lim eng muhim omil bo'lib qolaveradi. Chunki, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy-amaliy asoslarini o'rganish va o'zlashtirish yoshlarda mudofaa xususiyatiga ega vositalarni o'zlashtirishni, urushning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy uslublarni qo'llashni, harbiy tajovuzkorlik va ma'naviy tahdidlarni qaytarishning samarali yo'llarini izlashni, Vatan himoyasi uchun qurollangan kurash olib borishga doir usullarga tizimli yondoshishda muhim ahamiyatga ega. Bunda harbiy xizmatchining O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilishdek konstitusion burchini bajarishga tayyorlikni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan va tizimlashtirilgan faoliyatini ifodalovchi oliy ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoni ta'limiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida olib boriladigan tarbiya ishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va bu borada samarali ishlarni tashkil etishda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishga qaratilgan targ'ibotlarning zamonaviy usullari - targ'ibotning g'oyasini aniqlash, targ'ibot kontekstini tahlil qilish, targ'ibot kimlarga qaratilganligini aniqlash, hamda mediausullardan foydalanishni talab etadi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik e'tiqodini mustahkamlashning konseptual asoslari milliy tafakkur, ma'naviy jasorat, qat'iy fuqarolik pozitsiyasi, dahldorlik tuyg'usi, aniq va ezgu maqsadlar bilan yashash kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq. Keng ko'lamlı, tizimli va maqsadli reja asosida muntazam amalga oshirib borish zarurligini taqozo etadigan vatanparvarlik e'tiqodi funksional va tashkiliy jihatlarni qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent: O'zbekiston
2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O'zbekiston, 2020 yil 23 sentyabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
4. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. BMTning O'zbekiston Respublikasidagi Vakolatxonasi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son “Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi Farmoyishi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909 sonli Qarori

8. Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-innovasion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”24-son Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-sonli Qarori.
10. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.104.
11. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- B.149.
12. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 158. (- 488 b.)
13. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I-tom. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.592.
14. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.508.